

**BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA HAMKORLIKDA O‘QITISH
TEKNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH ORQALI O‘QUVCHI
DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH**

*Qosimova Manzura Abdullayevna
Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisi*

Аннотация. maqolada ta’lim jarayonida o‘quvchi dunyoqarashini rivojlantirish muammolari, darsda hamkorlikda o‘qitish texnologiyasidan foydalanib o‘quvchi shaxsiga yangicha nuqtayi nazardan yondashish, o‘quvchilarni faollashtiruvchi va rivojlantiruvchi didaktik majmualarning o‘ziga xos xarakteri, kichik yoshdagi o‘quvchilarga ta’lim – tarbiya berishda hamkorlikda o‘qitish texnologiyasidan foydalanish imkoniyatlari asosida uning dunyoqarashini rivojlantirishga oid ilmiy, amaliy tavsiyalar berilgan.

Калит so‘zlar: o‘quvchi dunyoqarashi, hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi, o‘quvchi shaxsi, faol metodlar, didaktik majmua, muomala odobi, shaxslararo muloqot, do‘stona munosabat.

Аннотация. в статье даны научно – практические рекомендации по проблемам развития мировоззрения учащегося в образовательном процессе, подходу к личности учащегося с новой точки зрения с использованием технологии совместного обучения на уроке, специфическому характеру активизирующих и развивающих дидактических комплексов учащихся, развитию его мировоззрения на основе возможности использования технологии совместного обучения в учебно-воспитательном процессе младших школьников.

Ключевые слова: мировоззрение ученика, технология совместного обучения, личность ученика, активные методы, дидактический комплекс, этикет обращения, межличностное общение, дружелюбие.

Annotation. the article provides scientific, practical recommendations on the development of a student's worldview on the basis of problems of developing a student's worldview in the educational process, approach the student's personality from a new point of view using collaborative teaching technology in the lesson, the specific character of didactic complexes that activate and develop students, the possibilities of using

Keywords: reader's worldview, technology of collaborative teaching, student personality, active methods, didactic complex, manners of treatment, interpersonal communication, friendly attitude.

Ta’lim-tarbiyaga uzluksiz tizim sifatida qaralishining o‘zi yosh avlod tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligining amalda namoyon bo‘lishidir. Ayni chog‘da, davlat siyosatining ta’lim-tarbiya borasidagi ustuvor yo‘nalishlari ta’lim-tarbiyaning uzluksiz va izchil bo‘lishini taqozo etadi.

Zero, bundan kuzatilgan asosiy maqsad muayyan kasbni mukammal egallab olgan va ayni chog‘da sog‘lom, barkamol inson shaxsini vujudga keltirish, uni hozirgi zamon fan-texnikasi yutuqlaridan bahramand etish, axborot asri bo‘lmish XXI asrning yuksak talablariga muvofiq kadr bo‘lib etishishiga erishishdir O‘quvchi-yoshlarning ma’naviy barkamolligini, g‘oyaviy dunyoqarashini takomillashtirishda ta’lim-tarbiya, targ‘ibot va tashviqotning samarali usul va vositalaridan oqilona foydalanish bugun davr talabiga

aylanib ulgurgan. Bizning fikrimizcha, bu jarayonni amalga oshirish mexanizmlarini quyidagicha ifodalash mumkin:

Ta’lim-tarbiya jarayonida foydalaniladigan tamoyillar loyihalashtirilgan dars mavzusining xarakteri, o’quvchi shaxsi hamda sinf jamoasining o’quv fanga bo’lgan qiziqishi, qobiliyati, ehtiyoji, dunyoqarashi, psixologik xususiyatlari, motivatsiyasi, faolligiga qarab tanlanadi. [1] Ta’lim jarayonida o’quvchilarning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirish mezonlari sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- o’quv dasturlarida hissiy stimullashtiruvchi muhit yaratishni hisobga olish, ya’ni o’quvchilarning tashabbusini qo’llab-quvvatlash, predmetlararo bog’liqlik, o’z-o’zini boshqarish va mas’uliyatni his etishga asoslangan erkinlik.

- o’qituvchi va o’quvchilar o’rtasidagi munosabatlarning ochiqligi va iliqligi, o’qituvchi tomonidan tanqid va tazyiqqa yo’l qo’ymaslik, o’quv sinfida konstruktiv shaxslararo munosabatning o’rnatilganligi;

- o’quv jarayonining o’qituvchi va o’quvchilar tomonidan o’zaro birdamlik asosida qurilganligi;

- o’qituvchi vakolatining “maslahatchi” hamda har doim yordam berish uchun tayyor bo’lgan “bilimlar manbai” doirasida chegaralanganligi;

- har bir o’quvchi uchun “o’quv-biluv alternativlari”ni tanlash imkoniyatining yaratilganligi va o’qituvchi tomonidan o’quvchilar rivojlanish darajasini ko’rsatadigan o’z-o’zini namoyon etish shakllarining rag’batlantirilishi;

- ta’lim dasturlarining o’quvchi ijodiy imkoniyatlarining maksimal rivojlanish darajasi hamda ulardagi kreativ qobiliyatlarni stimullashtirish nuqtayi nazaridan baholanganligi;

- bilish taraqqiyoti muammolarining o’qituvchi va o’quvchilar tomonidan hamkorlikda muhokama qilinishi, shuningdek, bahodan o’quvchilarga bosim o’tkazish shakli sifatida foydalanishdan voz kechish. Bu mezonlar diqqat bilan o’rganib chiqilsa, ularning har biri zamirida bevosita o’quvchilarning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirish yotadi.

O’quvchilarning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishda ularning faoliyatini mustaqil va hamkorlik asoslarida tashkil etish mumkindir. Bu odatda shunday amalga oshiriladi va bu hozirgi kunga qadar davom etib kelmoqda. Shunga muvofiq tarzda o’quvchilarning yosh xususiyatlari va qobiliyatlarini inobatga olgan holda mustaqil ishlar, hamkorlikdagi ish usullari va texnologiyalari orqali amalga oshirish ijobiy samara beradi.

Bugungi kunda yuqorida ta’kidlanganlardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki:

- o’qituvchi-o’quvchi orasidagi do’stona munosabat negizida axborotlarni taqdim etish va o’zlashtirish;

- boshlang’ich ta’lim jarayonida o’quvchilar orasida do’stona muhitni shakllantirish bilan bog’liq pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash;

- boshlang’ich ta’lim jarayonida o’quvchilar orasida hamkorlik va do’stona munosabatni shakllantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini izlash;

- boshlang’ich ta’limda do’stona munosabatni tashkil etish jarayonining mazmuni, shakl, vosita, usul va metodlarini aniqlash alohida dolzarflik kasb etmoqda[2].

Bugungi kunda hamkorlik shaxs tafakkurining o’zgarishi natijasida vujudga kelmoqda. Hamkorlikni tashkil etuvchi tushunchalarning tarkibi insonning zamonaviy tafakkurini ifodalaydi. Bu jarayonda hamkorlik o’z qo’llanishiga xos bo’lgan boshlang’ich

holatni tark etadi. Chunki inson tafakkuri bir qator tushunchalar bilan mustahkam bog‘langan. Ular etuklik, yangi tafakkurni taqozo qiluvchi ongda mavjud bo‘ladi.

Inson har doim to‘plangan tajribalardan o‘z faoliyatida foydalanishga ehtiyoj sezadi. Bu o‘rinda asosiy e‘tibor tizimning vujudga kelishi, qurilishi va uning rivojlanishini asoslashga qaratiladi. Pedagogikada turli vazifalarni echish jarayonida tuzilmani saqlash va tashkil etish, muayyan tartibni vujudga keltirish faoliyatning maqsadi yoki uning muhim bosqichi hisoblanadi. Masalan, o‘quv masalalarini birgalikda echishni rejalashtirgan guruhning tashkil topishi. Bunday guruh barqaror va yangi topshiriqlarni o‘zlashtirishga tezgina mo‘ljallanadigan guruh bo‘lishi lozim.

Bunday guruhni tashkil etishning optimal maqsadga erishadigan yo‘li qanday, degan savol tug‘iladi. Bu tarzda guruhlarini tashkil etish masalasi ta‘lim jarayonida alohida dolzarblik kasb etmoqda. Bu o‘rinda sinab ko‘rish va xatolar metodidan foydalanish imkoniyati mavjud emas. Bunday harakatga asoslangan tizimni vujudga keltirish o‘ta murakkabdir.

Hamkorlik pedagogikasining bugungi kunga qadar tadqiq etilmaganligining asosiy sababi – ta‘limning to‘la ma‘noda o‘qituvchi hamda o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilmaganligidadir. Hamkorlikning o‘ziga xos jihatlarni an‘anaviy ta‘lim sharoitida tadbiq qilish o‘ta murakkab masaladir. Biz amaliyotda bunday urinishlarning mavjudligini ham kuzatdik [4]

Hamkorlikka asoslangan pedagogika o‘qituvchi hamda o‘quvchilar birgalikdagi faoliyatini ifodalovchi tizim bo‘lib, bu jarayonda jamoaning ijodiy quvvatlari va faoliyat samaradorligi namoyon bo‘ladi. Yangi maqsadlarni ro‘yobga chiqarish imkoniyati ta‘minlanadi. Bu maqsad – o‘quvchilar jamoasini ularning kuchlari yordamida qo‘shimcha ijodiy natijani qo‘lga kiritishga o‘rgatishdan iborat. Hamkorlik pedagogikasi yangi vositalar bilan kompyuter texnikasi yordamida muloqot jarayonini optimallashtiradi hamda axborotli mahsulotlarni ishlab chiqaradi. Shuning uchun ham, hamkorlik pedagogikasi ta‘lim jarayonida qo‘llash uchun o‘quv materiallariga ishlov berishda yangi ta‘lim metodlaridan foydalanadi. Shu maqsadda hamkorlik pedagogikasi bir qator fan sohalari bilan kesishadi. Jumladan, ijtimoiy muloqot nazariyasi, axborot texnologiyalari, mantiq, tilshunoslik, shuningdek, shaxsiy kuzatishlar va tajriba-sinov natijalari, psixologiyaga oid bilimlar kabilar[4].

Hamkorlik qilish ko‘nikmasi o‘quvchilardan tabiiy ravishda paydo bo‘lmasligi va buning uchun rag‘batlantirish, rolli o‘yinlar, bevosita ko‘rsatmalar va mashq uchun vaqt talab etilish mumkin. Masalan, birgalikda ishlash uslublari xususida bahs yuritilishi mumkin, jumladan, navbat bilan fikr bildirish, boshqalar gapirayotganda quloq solish orqali hamda o‘z o‘zlashtirish jarayoniga mas‘uliyat his etish orqali. O‘quvchilar hamkorlik qilganlarida va birgalikda ish olib borganlarida o‘qituvchilar guruhlardagi barcha o‘quvchilar:

-ishtirok etishlari va o‘zlarini jarayonning bir qismi sifatida his etishlarini ko‘zlagan maqsadlari va rejalarini kelishib olishlariga o‘z natijalariga erishish uchun ajratilgan bo‘limlar ustida ishlashlariga birgalikda bajargan ishlarini qanday yaxshilash mumkinligi xususida birga bosh qotirishlari, o‘zlari bajargan ish xususida gapirishlari va fikr bildirishda bir-birlariga yordam berishlarini ta‘minlashlari lozim.[1]

Xulosa qilib aytganda, ta‘lim jarayonida o‘quvchilarni har tomonlama o‘zgartirish tamoman yangi ilmiy-pedagogik asoslarga tayanishni taqozo qilmoqda. Umumiy o‘rta ta‘lim oldiga qo‘yilgan maqsad, vazifa va tamoyillarni amalga oshirish

nafaqat ta’lim mazmunini o’zgartirishni talab qilmoqda, balki uning shakllari, metodlari, o’qituvchi faoliyatini ham takomillashtirishga bo’lgan ehtiyojni qondirish maqsadida o’qituvchilar yangi ijtimoiy sharoitlarga ishlashga layoqatli, pedagogik vaziyatlar echimiga noan’anaviy tarzda yondasha oladigan, o’qitishda mualliflik texnologiyalarini yarata oladigan bo’lishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Po’latov D.A. Innovatsion ta’lim sharoitida o’smir yoshidagi o’quvchilarining ma’naviy dunyoqarashini shakllantirish tamoyillari. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar (2021-yil No6) ISSN 2181-1709 (P)
2. Mesto i rol uchitelya v innovatsionnix pedagogicheskix texnologiyax: Tez.dokl. mejvuz. nauch.-pr. konf., 26–28-maya 1994 g. Birk: B.i., 1994. 206 s.
3. Dilova N.G’. Pedagogik hamkorlik vositasida ta’lim sifati va samaradorligini ta’minlash imkoniyatlari //Xalq ta’limi. – Toshkent, 2012. – № 3. – B. 76 -77.
4. Dilova N.G’. Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari //Uzluksiz ta’lim. Toshkent: 2016. – № 2. – B.3 -7.
5. Dilova N.G’. Uzluksiz ta’lim tizimida hamkorlik asosida pedagogik muomala va muloqot usullarini shakllantirish //Uzluksiz ta’lim. – T: 2017. – № 1.– B.9 -12.